

TOYYIBATUN-NASHR” ASARINING ASOSIY SHARHLARI HAMDA ULARNING QIYOSIY-ILMIY TAHLILI

Karimberdiyev G‘ovsiddin

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qiroat ilmi adabiyotida “cho‘qqi asar” hamda o‘n qiroat yo‘nalishida bosh manba hisoblangan Imom Ibnul Jazariyning “Toyyibatun-Nashr” manzumasiga bitilgan eng asosiy sharhlar matnshunoslik va qiyosiy-tahlil metodlari asosida tadqiq etilgan. Xususan, asarning murakkab ramzlari, usul va farsh ixtiloflari hamda she‘riy strukturasi ulamolar tomonidan qanday izohlangani ochib beriladi. Tadqiqot davomida Ibn Nozim, Abulqosim an-Nuvayriy, Sayyid al-Omiliy va Yusuf Afandizoda kabi buyuk qorilar va olimlarning sharhlari, ularning o‘ziga xos ilmiy uslublari, qiyosiy jihatlari hamda qo‘lyozma va nashr manbalari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qiroat ilmi, Toyyibatun-Nashr, Ibnul Jazariy, Ibn Nozim, Abulqosim an-Nuvayriy, al-Omiliy, Yusuf Afandizoda, usul, farsh, sharh, qo‘lyozma, tahqiq.

Kirish

Qiroat ilmi adabiyotida “cho‘qqi asar” hisoblangan “Toyyibatun-Nashr” qiroat ahli tomonidan yuksak e‘tirof va e‘tiborga sazovordir. Ushbu asar o‘n qiroat masalasida eng muhim tayanch nuqtasi bo‘lib xizmak qilib kelayotgani bois, qisqa fursat ichida ta‘lim jarayonida o‘qitiladigan va yod olinadigan asosiy manbaga aylandi. U yozilgan davrdan to bugungi kunga qadar ustida ko‘plab sharhlar va mustaqil tadqiqotlar olib borilgan.

Mutavotir va mashhur qiroatlarning usul (umumiy qoidalar) va farsh (so‘zlar ustidagi xususiy ixtiloflar) qismlari she‘riy shaklda bayon etilgan ushbu asarda, nazm janrining tabiatidan hamda muallif tomonidan joriy etilgan so‘z va harfiy ramzlar qo‘llanilganidan kelib chiqib, ayrim mavhum jihatlar mavjud. Asarni munosib tarzda anglash uchun qiroat ilmi bo‘yicha bilimga ega bo‘lish bilan bir qatorda, she‘riy zaruratlar va qofiya kabi adabiy mezonlarni ham tushunish talab etiladi. Qasidaning o‘ta qisqa va lo‘nda shakli qiroat

olimlarini ushbu manzumaning ramzlarini izohlovchi, tavihida nahv va sarf tahlillarini yorituvchi mukammal sharhlar yozishga undagan.

Asosiy Qism: “Toyyibatun-Nashr” Asariga Bitilgan Sharhlar Tahlili

1. Ibn Nozim sharhi

“Sharhu Toyyibatun-Nashr fil-Qiroatil-Ashr” deb nomlangan ushbu asar Ibnul Jazariyning o‘g‘li Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad ibn Yusuf al-Jazariy tomonidan qalamga olingan¹. Muallifning kunyasi Abu Bakr Ahmad bo‘lgani bois, mazkur asar “Abu Bakr Ahmad sharhi” yoki muallif (Nozim)ning o‘g‘li bo‘lgani uchun “Ibn Nozim sharhi” nomi bilan ham mashhurdir.

Mazkur asar ko‘plab mamlakatlarda qiroat ta’limi beriladigan markazlarda “Toyyibatun-Nashr” bo‘yicha eng ko‘p murojaat qilinadigan manba hisoblanadi.

Abu Bakr Ahmad qo‘l ostida otasi Ibnul Jazariyning “Toyyiba”ga yozgan hoshiyalari va qaydlari bo‘lmasa-da, “Toyyibatun-Nashr”ga sharh bitgan. Ibnul Jazariy o‘g‘li tomonidan amalga oshirilgan ushbu tadqiqotni go‘zal bir sharh sifatida baholab, asarni ma’qullagan. Ibnul Jazariy o‘g‘lining qiroat ilmidagi bilimi va bu sohadagi salohiyati haqida shunday deydi:

“Men Makka yaqinida istiqomat qilayotganimda, u (Abu Bakr Ahmad) Misrda yashar edi. O‘sha paytlarda, ixtiyorida mening “Toyyibatun-Nashr” nomli asarimga yozgan hoshiyalarim bo‘lmasa-da, asarimga sharh bitib, ayni o‘sha uslubda go‘zal bir tadqiqotni amalga oshirdi. Bundan avval ham mening nazmda yozilgan “Muqaddimatut-Tajvid” va “Muqaddimatu Ilmil-Hadis” asarlarimni ham g‘oyat go‘zal tarzda sharhlab, Sulton Ashruf Barsboyga taqdim etgan edi. Sulton esa marhum akasi Abul Fath Muhammadning maoshini unga tayinlab, uni mudarrislik darajasiga ko‘tardi hamda qiroat ilmi bilan shug‘ullanish va dars berib, shogirdlar yetishtirish vazifasini unga topshirdi. Shundan so‘ng, u bola-chaqasini olib kelish

¹ As-Saxoviy, Shamsiddin Muhammad ibn Abdurahmon. Ad-Dav‘u-l-lomi‘ li ahli-l-qarn at-tosi’. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1992. – J. 2. – B. 193.

uchun Onado'liga (Bursaga) yo'l oldi. Men ham xuddi shu niyat bilan Ajamistonga (Eronga) ketdim. Alloh taolo yordamchimiz bo'lsin va barchamizni xayrlisi bilan yana bir yerda jam qilsin!"²

Bizning fikrimizcha, ushbu asarning asrlar osha o'qilib kelayotganiga aynan muallif haqidagi o'sha yuqori e'tiroflar sabab bo'lgan. Dunyo bo'ylab va xususan Turkiya kutubxonalarida ko'plab qo'lyozma nusxalari saqlanayotgan Abu Bakr Ahmad sharhi, birinchi marta 1950-yilda Ali ibn Muhammad ad-Dabbo' tomonidan ilmiy tahlil (tahqiq) qilinib, Qohirada chop etilgan. Keyinchalik asar boshqa olimlar (Enes Mihre, 1997; Jamoluddin Muhammad Sharaf, 2005) tomonidan ham qayta-qayta nashr qilindi.

Asarning eng ustun tomoni shundaki, u juda sodda va tushunarli tilda yozilgan. Muallif asosiy matndan chalg'imagan va ortiqcha mayda-chuydalarga berilmasdan, masalalarni lo'nda tushuntirib bergan. Qiroat ilmini o'rganayotgan talabalar uchun darslik yoki xulosa vazifasini o'tagani sababli, bu kitob hamon juda ommabop hisoblanadi.

2. An-Nuvayriy sharhi

Abul Qosim Muhammad ibn Ali an-Nuvayriy (vaf. 857/1453) tomonidan qalamga olingan "Sharhu Toyyibatun-Nashr fil-Qiroatil-Ashr"³ asari "Toyyiba"ga yozilgan sharhlar ichida eng hajmlisidir. An-Nuvayriy ushbu asarida Ibnul Jazariy bilan uchrashgani, undan "Toyyiba" yo'nalishi bo'yicha qiroat darslarini olgani, manzumani sharhlash sabablari⁴ va kitobni yozish jarayoni haqida batafsil ma'lumot beradi.

Hali yozilmasidanoq o'z o'quvchisiga ega bo'lgan ushbu sharh kuchli talab va istaklar asosida yuzaga kelgan⁵. An-Nuvayriy ushbu murojaatlarni va sohadagi ehtiyojni inobatga olib, 1426-yilda (hijriy 830) boshlagan ishini ikki yillik mehnatdan so'ng, 1428-yil (hijriy 832) Rabiulavval oyida yakunlagan.

² Ibn Jazariy, Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad, G'oyat an-nihoya fi tabaqot al-qurro. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1980. – J. 1. – B. 130

³ Al-Marsafiy, Abdul Fattah, Hidoyat al-qori ila tajvid kalom al-bori. – Qohira: Maktabat al-Azhariyya li-t-turos, 1995. – J. 2. – B. 721.

⁴ Yuksal, Ali, Jazariy va Toyyibasi. – Istanbul: Marmara universiteti nashriyoti, 1996. – J. 1. – B. 54–57.

⁵ An-Nuvayriy, Sharhu Toyyiba. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya, 1980. – J. 1. – B. 29.

Ibnul Jazariydan “Toyyiba” bo’yicha ijozat olgach, Quddusga yo’l olgan an-Nuvayriy G’azzada to’xtaydi. U G’azzada qiroat ilmining ko’zga ko’ringan vakillaridan iborat katta jamoa borligini va bu shahar qiroat ilmi borasida yuksak mavqega ega ekanini aytadi. U yerdagi madrasalarda qiroat ta’limi “Toyyiba” asari asosida olib borilayotganini ko’rgan An-Nuvayriy, olimlar va talabalarning bu ilmga bo’lgan ishtiyoqi hamda izlanishlarini kuzatish uchun bir muddat ular orasida qoladi.

G’azzoning ilmiy muhiti an-Nuvayriyning salohiyatini anglagach, munosib bir sharhsiz qiroat ilmini to’laqonli o’zlashtirish qiyinligini tushuntirib, undan “Toyyibatun-Nashr” ning murakkab o’rinlarini yorituvchi sharh yozishni o’tinib so’rashadi. Bu boradagi qat’iy talablardan so’ng, An-Nuvayriy ushbu vazifani go’yo bir haj farzidek mas’uliyat bilan qabul qilib, nihoyatda keng qamrovli sharh yozadi.

An-Nuvayriy dastlab bu ishni nihoyatda og’ir va uddalash qiyin deb hisoblab, sharh yozishdan o’zini olib qochgan. U buni asarda o’ta murakkab va mavhum iboralarning borligi, qoidalar ko’pligi sababli tushunish qiyinligi, masalalarning xuddi jumboq yoki tilsim kabi o’ta qisqa bayon qilingani hamda yuksak g’ayrat va shijoatsiz asarni anglash imkonsiz ekanligini izohlaydi.

Bundan tashqari, muallif o’zi bilan bog’liq sabablar sifatida vaqtining yetarli emasligi, o’zini bunday asarni tahlil qilishga noloyiq deb bilishi, zehni charchagani hamda murakkab vaziyatlarda yo’l ko’rsatuvchi rahbarning yo’qligi kabi vajlarni keltirib o’tadi. Biroq, keyinchalik ma’naviy mas’uliyatni his qilib, sharh yozishga qayta qaror qilgan. U ushbu mas’uliyatni his etishida Muhammad Payg’ambardan sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qilingan: “Kim bir ilim haqida so’ralsa-yu, u buni bilsa ham yashirsa, Alloh qiyomat kuni uning og’ziga olovdan bo’lgan yugan uradi” degan hadisi sharifni asos qilib keltiradi va o’zini sharh yozishga majbur deb bilganini ta’kidlaydi.

An-Nuvayriy “Toyyibatun-Nashr”ga sharh yozish nihoyatda muhim, mushkul va ulkan vazifa ekanini qayd etadi. Bu borada o’zidan avval yo’l ko’rsatuvchi yoki namuna bo’ladigan biror ish qilinmagani masalani yanada qiyinlashtirganini aytadi. Vaholanki, Ibnul Jazariyning o’g’li Abu Bakr Ahmad Misrda bo’lganida “Toyyibatun-Nashr”ga sharh

yozgan edi. Ibnul Jazariy bu sharhni ko'rgach, uni yoqtirgan va o'g'lini taqdirлагan edi. An-Nuvayriyning bu so'zlaridan uning Abu Bakr sharhidan xabari bo'lmagani anglashiladi. Zero, har ikki sharhning yozilish sanasiga qaralsa, an-Nuvayriy o'z asarini 1426–1428-yillarda (hijriy 830–832) bitgan bo'lsa, Abu Bakr Ahmad o'z sharhini 1404–1424-yillar (hijriy 807–820) oralig'ida yozib tugatgan edi.

Mazkur asarda “Toyyibatun-Nashr” ning boshqa sharhlarida uchramaydigan ilmiy va adabiy tuzilishiga keng o'rin berilganini ko'rishimiz mumkin. Manzumaning qurilishi, vazni, iboralari va e'robi (grammatik tahlili) kabi mavzularga chuqur e'tibor qaratilgani sababli, ba'zan baytning asosiy maqsadi kechikib bayon qilinadi. “Toyyibatun-Nashr” dagi barcha baytlar sarf va e'rob jihatidan batafsil tahlil qilingan. Texnik jihatdan juda quyuq va qisman tarqoq ma'lumotlarni o'z ichiga olgani uchun kitobning tili ham biroz og'ir tuyuladi. Sharhda “sod” (ص) harfi bilan qasida (matn)ga, “shin” (ش) harfi bilan esa sharhga ishora qilingan bo'lib, tushuntirishlar misralar asosida olib borilgan.

Dunyo va Turkiya kutubxonalarida ko'plab qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lgan ushbu asar, Majdiy Muhammad Surur Sa'd Baslum (Bayrut, 2003) hamda Jamoliddin Muhammad Sharaf (Tanta, 2004) tomonidan tadqiq (tahqiq) qilinib, nashr etilgan.

3. Al-Omiliy sharhi

“Sharhut-Toyyibatil-Jazariyya fil-Qiroa” nomi bilan mashhur bo'lgan va manbalarda “Al-Omiliy sharhi” deb ham yuritiladigan ushbu asar Sayyid Badriddin Hasan ibn Ja'far ibn Hasan ibn Najmiddin al-A'raj al-Omiliy (vaf. 933/1526) tomonidan qalamga olingan.

4. Yusuf Afandizoda sharhi

Amasya olimlaridan biri, ayni vaqtda “Sahihul-Buxoriy”ga yozilgan “Najohul-qori li Sahihil-Buxoriy” asari muallifi Yusuf Afandizoda Abdulloh ibn Muhammad ibn Yusuf al-Amasiy (vaf. 1167/1753) tomonidan qayd etilgan. Mazkur asar manbalarda “Sharhu Toyyibatin-nashr” yoki “Sharhu Qasidatin-nashr fil-qiroatil-ashr” nomlari bilan keltirilsada, Yusuf Afandizoda ijodini tadqiq qilgan olim Ali O'ge “topishning imkoni bo'lmadi” deb ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi.

Abdulfattoh Paluviy tomonidan yozilgan “Zubdatul-irfon fi vujuhi-Qur'on” asarining “Hilol” va “Ostoni” (Âsitâne) nashrlaridagi 177–185-sahifalar orasida Yusuf

Afandizodaning “Toyyiba” tariqiga ko‘ra o‘n imom qiroatidagi mad darajalari va me‘yorlarini tushuntirgan “Maratibul-mad” risolasi o‘rin olgan. Unda “Toyyiba” dagi tariqlar, mad miqdorlari va ularga oid isnodlar batafsil bayon qilingan. Shuningdek, ushbu asarning “Tuhfatut-talaba fi bayoni maddoti turuqit-Toyyiba” nomi bilan ham atalishi qayd etilgan.⁶

5. Samannudiy sharhi

Muhammad ibn Hasan al-Munayyir as-Samannudiy (vaf. 1199/1785) tomonidan⁷ muxtasar (qisqartirilgan) shaklda yozilgan bo‘lib, to‘liq nomi “Sataotu lamaot anvor diyo‘il-fajr fi sharhi kitabi Toyyibatun-nashr” dir. Muallif ushbu asarni yozishiga sabab sifatida ba‘zi olimlar va yaqin do‘stlari undan “Toyyibatun-nashr”ga sharh bitishni iltimos qilganliklarini ko‘rsatib o‘tgan.

Mazkur asar Nura binti Ali Sa’d al-Hilol tomonidan (Makka, 2013) doktorlik dissertatsiyasi sifatida tadqiq etilgan.

6. Gunyat al-talaba bi sharh al-Toyyiba

Mazkur asar Muhammad Mahfuz ibn Abdulloh ibn Abdulmannon at-Termasiy (vaf. 1338/1920) tomonidan qalamga olingan. Ushbu tadqiqot Ibn al-Jazariyning o‘nta qiroatga bag‘ishlangan mashhur “Toyyibatun-nashr” asariga yozilgan asosiy sharhlardan biri hisoblanadi. Muallif ushbu asarida qiroat ilmining nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritib bergan bo‘lib, u soha mutaxassislari hamda talabalari uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa

“Toyyibatun-Nashr” manzumasi qiroat ilmi rivojida mukammal asar bo‘lib, unga bitilgan sharhlar asrlar davomida ushbu ilmning amaliy va nazariy jihatdan mukammal saqlanishiga xizmat qilib keldi. Ibn Nozim sharhi o‘zining sodda va lo‘nda uslubi bilan darslik sifatida yetakchilik qilgan bo‘lsa, An-Nuvayriy sharhi grammatik (e‘rob), adabiy

⁶ Ismoil Posho al-Bag‘dodiy Hadiyyat al-orifin asmo al-muallifin va osor al-musannifin. – Istanbul: Dor al-Ma‘rifa, 1951. – J. II – B. 482.

⁷ Ayman Rushdiy Suvayd. Manzumat at-Toyyiba. – Damashq: Dar al-Fikr, 2006. – J. VI. – B. 8.

va chuqur lisoniy tahlillari bilan sohaning eng mukammal ensiklopedik manbasi bo‘lib hisoblanadi. Garchi ba’zi sharhlar (Yusuf Afandizoda sharhi kabi) bizning davrimizgacha to‘liq yetib kelmagan bo‘lsa-da, ularning qisqartma risolalari ham qiroatdagi isnod va mad qoidalarini o‘rganishda yuqori ilmiy qiymatga egadir.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Abulqosim Muhammad ibn Ali an-Nuvayriy. Sharhu Toyibatun-Nashr fil-Qiroatil-Ashr. – Tanta: Dor as-Sahoba lit-turos, 2004.
2. Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Jazariy. Sharhu Toyibatun-Nashr fil-Qiroatil-Ashr. – Qohira: Maktaba Mustofa al-Bobiy al-Halabiy, 1950.
3. Abdulfattoh Paluviy. Zubdatul-irfon fi vujudhi-Qur’on (Yusuf Afandizodaning “Maratibul-mad” risolasi bilan birga). – Istanbul: Âsitâne nashriyoti, 1310.
4. Ali O‘ge. Yusuf Efendizâde ve Kıraat İlmindeki Yeri. – Konya: Çizgi Kitabevi, 2003.